SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

## 2023- YIL YANVAR-APREL




*Dastlabki ma'lumotlar*

# Xizmatlar sohasining asosiy koʻrsatkichlari [1)]

*(2019-2023- yillar yanvar-aprel)*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan toʻliq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qoʻllab-quvvatlash maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan “Oʻzbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari” tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

**Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi** — **1 648,6 ming soʻm**

**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi** — **63,9 %**

**Xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar ulushi** — **65,2 %**

| Yil | Xizmatlar hajmi (mlrd. soʻmda) | Oʻsish surʼati (% da) |
|---|---|---|
| 2019- y. | 1 994,9 | 111,8 |
| 2020- y. | 2 331,1 | 94,1 |
| 2021- y. | 3 031,6 | 125,9 |
| 2022- y. | 3 698,7 | 112,1 |
| 2023- y. | 4 639,5 | 109,3 |

**Xizmatlar hajmi** *(mlrd. soʻmda)*

**Oʻsish surʼati** *(% da)*

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, **2023- yilning yanvar-aprel** oylarida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 639,5** mlrd. soʻmga yetdi. Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan (**112,1** %) oʻsish surʼati **109,3** % ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan koʻrsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni oʻz ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va isteʼmol xizmatlarini koʻrsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

*[1)] Shu va keyingi oʻrinlarda 2022-2019- yillar koʻrsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta koʻrib chiqilgan*

# Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari

*(2023- yil yanvar-aprel)*

| | **Hajmi,** *mlrd. so‘mda* | **Ulushi,** *% da* | **O‘sish sur’ati,** *% da* |
|---|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati [1)]** | **4 639,5** | **100,0** | **109,3** |
| Termiz sh. | 1 334,2 | 28,8 | 114,2 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oltinsoy | 180,3 | 3,9 | 104,8 |
| Angor | 192,6 | 4,2 | 105,3 |
| Boysun | 141,8 | 3,1 | 105,0 |
| Bandixon | 99,6 | 2,1 | 104,1 |
| Muzrabot | 206,4 | 4,4 | 105,3 |
| Denov | 594,9 | 12,8 | 110,8 |
| Jarqo‘rg‘on | 273,0 | 5,9 | 108,9 |
| Qumqo‘rg‘on | 288,6 | 6,2 | 108,8 |
| Qiziriq | 176,3 | 3,8 | 104,9 |
| Sariosiyo | 267,3 | 5,8 | 105,8 |
| Termiz | 204,3 | 4,4 | 107,2 |
| Uzun | 188,8 | 4,1 | 105,7 |
| Sherobod | 246,9 | 5,3 | 105,9 |
| Sho‘rchi | 244,5 | 5,2 | 109,6 |

[1)] *hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

**Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste’molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma’lum vaqt davomida ko‘rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari *(2019-2023- yillar yanvar-aprel)*




**2023- yil yanvar-aprel** oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 648,6** ming so‘mga yetdi. **2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o‘sish sur’ati **106,8** % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

*(2023- yil yanvar-aprel)*

| | Hajmi, ming. so‘mda | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** | **1648,6** | **106,8** |
| Termiz sh. | 6789,9 | 110,6 |
| Oltinsoy | 956,9 | 102,7 |
| Angor | 1368,0 | 103,0 |
| Boysun | 1160,7 | 103,1 |
| Bandixon | 1230,0 | 101,6 |
| Muzrabot | 1369,7 | 103,1 |
| Denov | 1006,5 | 108,2 |
| Jarqo‘rg‘on | 1172,6 | 106,4 |
| Qumqo‘rg‘on | 1155,0 | 106,3 |
| Qiziriq | 1450,9 | 102,8 |
| Sariosiyo | 1198,2 | 103,5 |
| Termiz | 2476,5 | 104,7 |
| Uzun | 1026,9 | 103,5 |
| Sherobod | 876,6 | 77,0 |
| Sho‘rchi | 1093,2 | 107,1 |

# Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

*(2019-2023- yillar yanvar-aprel)*



**2019- yil yanvar-aprel** oylariga nisbatan **2023- yil yanvar-aprel** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **402,7** mlrd. so‘mga oshib, **2962,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi.




Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **63,9** % ni, shu jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar **16,9** % ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga, aholi daromadlarini oshishi va farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

*(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so‘mda)*

**Surxondaryo viloyati– 2962,8**

- Termiz sh – 585,7
- Denov – 369,4
- Jarqo‘rg‘on – 189,1
- Sariosiyo – 185,9
- Sherobod – 185,0
- Sho‘rchi– 179,4
- Qumqo‘rg‘on – 2 551,3
- Muzrabod – 166.3
- Angor– 149,1
- Oltinsoy – 149,1
- Termiz – 144,7
- Uzun – 143,6
- Qiziriq. – 141,0
- Boysun – 115,3
- Bandixon – 85,7

Xizmatlar sohasida band bo‘lgan kichik tadbirkorlikning umumiy hajmida **19,8** foiz yoki **585,7** mlrd. so‘m Termiz shahriga to‘g‘ri keldi.



# Xizmatlar sohasining turlari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlari

*(2023- yil yanvar-aprel)*

| | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | Ulushi, *% da* | O‘sish sur’ati, *% da* |
|---|---|---|---|
| **Xizmatlar – jami** | 4 639,5 | **100,0** | **109,3** |
| *shu jumladan:* | | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 238,0 | 5,1 | 126,2 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1 095,8 | 23,6 | 121,6 |
| Transport xizmatlari | 652,2 | 14,1 | 103,8 |
| *shu jumladan: avtotransport xizmatlari* | 598,2 | 12,9 | 98,8 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 149,2 | 3,2 | 103,7 |
| Savdo xizmatlari | 1 625,7 | 35,0 | 102,4 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 102,0 | 2,2 | 103,5 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 194,0 | 4,2 | 145,1 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 71,9 | 1,5 | 103,8 |
| Ijara xizmatlari | 87,5 | 1,9 | 95,7 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 116,6 | 2,5 | 99,5 |
| Shaxsiy xizmatlar | 137,3 | 3,0 | 104,2 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 64,6 | 1,4 | 116,5 |
| Boshqa xizmatlar | 104,7 | 2,3 | 97,6 |




2019- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **783,2** mlrd. so‘mga oshib, **1095,8** mlrd. so‘mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moli-yaviy xizmatlarning ulushi **23,6** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o‘sish sur‘ati **121,6** % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

*(2023- yil yanvar-aprel)*

**2023- yilning yanvar-aprel oylarida** moliyaviy xizmatlar tarkibida sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari xizmat-larning ulushi **94,8** % ni tashkil etdi.






Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **45,3** foizni yoki **496,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan Termiz shahrida yuqori o‘sish sur’ati **123,8** % ni tashkil etdi.

# Moliyaviy xizmatlar

*(2023- yil yanvar-aprel)*

| **Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi** *(% da)* | *Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar* | *Sug'urta bo'yicha xizmatlar* | *Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar* |
|---|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** | **94,8** | **3,5** | **1,7** |
| **Termiz sh** | **89,2** | **7,7** | **3,2** |
| **Oltinsoy** | **100,0** | | |
| **Angor** | **99,8** | | **0,2** |
| **Boysun** | **100,0** | | |
| **Bandixon** | **100,0** | | |
| **Muzrabot** | **100,0** | | |
| **Denov** | **99,3** | | **0,7** |
| **Jarqo'rg'on** | **99,9** | | **0,1** |
| **Qumqo'rg'on** | **100,0** | | |
| **Qiziriq** | **99,8** | | **0,2** |
| **Sariosiyo** | **97,2** | | **2,8** |
| **Termiz** | **99,9** | | **0,1** |
| **Uzun** | **100,0** | | |
| **Sherobod** | **100,0** | | |
| **Sho'rchi** | **100,0** | | |

## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi

*(mlrd. so'mda)*

| | |
|---|---|
| **Surxondaryo viloyati.** | **1095,8** |
| Termiz sh. | 496,0 |
| Denov | 151,1 |
| Qumqo'rg'on | 88,9 |
| Sariosiyo | 59,4 |
| Jarqo'rg'on | 57,9 |
| Sho'rchi | 38,4 |
| Sherobod | 36,5 |
| Uzun | 27,6 |
| Termiz | 26,8 |
| Muzrabot | 25,1 |
| Qiziriq | 23,3 |
| Angor | 22,2 |
| Oltinsoy | 18,2 |
| Boysun | 15,4 |
| Bandixon | 8,5 |

**2023- yilning yanvar-aprel oylarida** transport xizmatlari hajmi **652,2** mlrd. so‘mni tashkil etib, **2022- yilning mos davriga** nisbatan ushbu xizmat turining o‘sish sur’ati **103,8** % ni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmat-larining umumiy hajmidagi ulushi **14,1** % ni tashkil etdi.




**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo‘yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog‘liq bo‘lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1- may** holatiga ko‘ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog‘liq bo‘lib, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **751** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **4,5** % ini tashkil etdi. Ulardan **740** birlik (**90,3** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

**Transport xizmatlarining turlari bo‘yicha tarkibi**

*(2023- yil yanvar-aprel)*






# Avtomobil transporti xizmatlari

*(2019-2023- yillar yanvar-aprel)*




**2022-yil yanvar-aprel** oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o‘sish sur’ati **101,8 %** ni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **12,9 %** ni tashkil etdi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo‘lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo‘lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo‘yicha xizmatlar va ko‘chish bo‘yicha xizmatlar kiradi.

**2023- yilning yanvar-aprel** oylarida avtomobil transportida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **598,2** mlrd. so‘mga yetdi.



Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **64,7** %.

***Taqqoslash uchun:*** **2022- yilning yanvar-aprel** oylarida ushbu ko‘rsatkich **67,2** % ni tashkil etgan.

## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi



**2019- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-aprel** oylarida savdo xizmatlari hajmi **220,1** mlrd. so‘mga oshib, **1 625,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo‘yicha o‘sish sur’ati **102,4 %** ga yetdi**.**




**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.




**2023- yilning 1- may** holatiga ko‘ra xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band bo‘lganlarning ulushi **47,3** % yoki **7,9** ming birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **93,4** % (**8,4** ming birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



# Savdo xizmatlarining tarkibi

*(2023- yil yanvar-aprel)*




**2023- yil yanvar-aprel** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlarining umumiy hajmining deyarli to‘rtdan uch qismini, ya’ni **82,6** % ni tashkil etdi.



| Hududlar kesimida | *Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta’mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda xizmatlar* | *Ulgurji savdo xizmatlari* | *Chakana savdo xizmatlari* |
|---|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | 4,3 | 12,9 | 82,8 |
| Termiz sh | 5,7 | 16,9 | 77,4 |
| Oltinsoy | 3,8 | 5,8 | 90,4 |
| Angor | 3,6 | 3,9 | 92,5 |
| Boysun | 4,0 | 2,0 | 94,0 |
| Bandixon | 4,1 | 0,4 | 95,5 |
| Muzrabot | 2,8 | 35,9 | 61,3 |
| Denov | 5,7 | 18,0 | 76,4 |
| Jarqo‘rg‘on | 4,2 | 4,2 | 91,5 |
| Qumqo‘rg‘on | 4,3 | 2,7 | 93,0 |
| Qiziriq | 3,2 | 23,6 | 73,2 |
| Sariosiyo | 3,9 | 14,2 | 81,9 |
| Termiz | 4,1 | 7,9 | 88,0 |
| Uzun | 3,9 | 3,0 | 93,1 |
| Sherobod | 3,6 | 18,4 | 77,9 |
| Sho‘rchi | 3.2 | 5,6 | 91,3 |

# Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

*(2019-2023- yillar yanvar-aprel)*




**2023- yilning yanvar-aprel** oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **238,0** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **126,0** % ni tashkil etdi.



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1- may** holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **0,3** ming birlikka yetdi, shundan **0,3** ming birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

*(2023- yil yanvar-aprel)*



# Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari *(2023- yil yanvar-aprel)*

| | **Hajmi,** *mlrd. so'mda* | **Ulushi,** *% da* | **O'sish sur'ati,** *% da* |
|---|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** | **238,0** | **100,0** | **126,2** |
| **Termiz sh** | **51,9** | **21,8** | **125,4** |
| **Oltinsoy** | **11,3** | **4,7** | **113,3** |
| **Angor** | **8,9** | **3,7** | **115,8** |
| **Boysun** | **8,8** | **3,7** | **123,1** |
| **Bandixon** | **5,1** | **2,1** | **122,6** |
| **Muzrabot** | **10,6** | **4,4** | **130,8** |
| **Denov** | **31,1** | **13,1** | **129,5** |
| **Jarqo'rg'on** | **17,9** | **7,5** | **141,0** |
| **Qumqo'rg'on** | **18,1** | **7,6** | **136,5** |
| **Qiziriq** | **8,2** | **3,5** | **120,3** |
| **Sariosiyo** | **14,3** | **6,0** | **118,1** |
| **Termiz** | **8,2** | **3,4** | **117,6** |
| **Uzun** | **13,3** | **5,6** | **130,0** |
| **Sherobod** | **14,8** | **6,2** | **131,5** |
| **Sho'rchi** | **15,6** | **6,6** | **121,6** |

*[1] hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

**2019- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan Termiz shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **11,4** mlrd. so'mga oshib, ko'rib chiqilayotgan davrda **51,9** mlrd. so'mga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **125,4 %** ni tashkil etdi.

Qiziriq tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **8,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.



**2023- yiling yanvar-aprel** oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **228,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,9 %** ni tashkil etgan.




**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma’lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

## Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi

*(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so‘mda)*

**Surxondaryo viloyati. – 238,1 [1)]**

- Termiz sh. – 45,6
- Denov– 30,2
- Qumqo‘rg‘on – 17,8
- Jarqo‘rg‘on – 17,7
- Sho‘rchi – 15,4
- Sherobod– 14,6
- Sariosiyo – 13,9
- Uzun – 13,1
- Oltinsoy – 11,1
- Muzrabot.– 10,5
- Angor – 8,6
- Boysun – 8,4
- Qiziriq – 8,1
- Termiz – 8,0
- Bandixon- 5.1

[1)] *hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

# OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami

*(2023- yil yanvar-aprel)*

| Nomi | Hajmi, *mlrd. so'mda* | Umumiy hajmdagi ulushi, *% da* |
|---|---|---|
| **Jami** | **238,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | |
| **AKT xizmatlari sektori** | 230,1 | 96,7 |
| *shu jumladan:* | | |
| Telekommunikatsiya xizmatlari | 228,1 | 99,1 |
| Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar | 2,0 | 0,9 |
| **Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori** | 7,9 | 3,3 |
| shu jumladan: | | |
| Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari | 5,5 | 69,6 |
| Kino - videofilmlar va televidenie dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari | 0,4 | 5,1 |
| Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar | 0,5 | 6,3 |
| Boshqa axborot xizmatlari | 1,5 | 19,0 |

# Ta’lim sohasidagi xizmatlar

*(2019-2023- yillar yanvar-aprel)*




**2023- yil yanvar-aprel** oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi **194,0** mlrd. so‘mga yetdi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **145,1** % ni tashkil etdi.



Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-aprel** oylarida ularning ulushi **4,2** % ni tashkil etdi.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog‘i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o‘xshash boshqalar kiradi.

**Ta’lim sohasidagi faoliyat**ni amalga oshirishda masofaviy o‘qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.





# Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

*(2019-2023- yillar yanvar-aprel)*




**2023- yil yanvar-aprel** oylarida sog‘liqni saqlash xizmatlari hajmi **71,9** mlrd. so‘mni yoki ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,5** % ini tashkil etdi.



**Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko‘rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023- yilning 1- may** holatiga ko‘ra sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **441** birlikni tashkil etdi, shundan **364** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

## Hududlar kesimida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

*(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so‘mda)*

| | |
|---|---|
| Surxondaryo viloyati | 71,9 |
| Termiz sh | 40,2 |
| Denov | 6,2 |
| Boysun | 4,6 |
| Sherobod | 4,3 |
| Termiz | 3,3 |
| Jarqo‘rg‘on | 2,9 |
| Qumqo‘rg‘on | 2,3 |
| Sho‘rchi | 2,1 |
| Sariosiyo | 1,2 |
| Uzun | 1,1 |
| Angor | 1,0 |
| Qiziriq | 0,9 |
| Oltinsoy | 0,8 |
| Muzrabot | 0,7 |
| Bandixon | 0,3 |

**2019- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning hajmi **26,3** mlrd. so‘mga oshib, **149,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi.






**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo‘yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.

**2023- yilning 1- may** holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **1 498** birlikni tashkil etgan bo‘lsa, ulardan **1 490** birlik kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi

*(2023- yil yanvar-aprel)*



# Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar

*(2019-2023- yillar yanvar-aprel)*




**2023- yilning yanvar-mart** oylarida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi **102,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,2** % ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o‘sish sur’ati **103,5** % ni tashkil etgan.

**Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarni** ko‘rsatishda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

## Hududlar kesimida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi

*(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so‘mda)*

| | |
|---|---|
| Surxondaryoviloyati | 102,0 |
| Termiz sh. | 19,2 |
| Oltinsoy | 4,5 |
| Angor | 9,2 |
| Jarqo‘rg‘on | 8,3 |
| Sho‘rchi | 6,7 |
| Sariosiyo | 6,3 |
| Sherobod | 5,5 |
| Qumqo‘rg‘on | 5,5 |
| Qiziriq | 5,2 |
| Uzun | 5,1 |
| Oltinsoy | 4,5 |
| Termiz | 4,4 |
| Boysun | 4,3 |
| Muzrabot | 4,2 |
| Bandixon | 2,7 |

[1)] *hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

**2023- yilning yanvar-aprel** oylarida me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **64,6** mlrd. so‘mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,4** % ni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o‘sish sur‘ati **116,5** % ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida me’morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

*(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so‘mda)*

**Surxondaryoviloyati – 64,6**

- Termiz sh. – 51,8
- Denov– 3,4
- Termiz – 2,5
- Sherobod– 1,0
- Angor– 0,7
- Qumqo‘rg‘on– 0,7
- Sariosiyo – 0,6
- Jarqo‘rg‘on– 0,6
- Muzrabot– 0,6
- Boysun– 0,6
- Sho‘rchi. – 0,5
- Uzun– 0,5
- Qizirig-0.5
- Oltinsoy– 0,4
- Bandixon– 0,2

**Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o‘z ichiga oladi.

# Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

*(2019-2023-yillar yanvar-aprel)*




**2023- yilning yanvar-aprel** oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **116,6** mlrd. so'm miqdorda qayd etilib, 2021-yilga nisbatan o'sish sur'ati **99,5** % ni tashkil etdi.



## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi

*(2023- yil yanvar-aprel)*




**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyemniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

# Ijara xizmatlari

*(2019-2023- yillar yanvar-aprel)*

**2019- yilning yanvar-apreliga** nisbatan o‘rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **2,4** mlrd. so‘mga oshib, **87,5** mlrd. so‘mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,9** % ni tashkil etdi.






**Ijara xizmatlari** bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-aprel** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **70,5** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va turlarini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona, tashkilot va xo‘jaliklarning samaradorligi va ularning raqobatbardoshliligini hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi**

***Tel.: 76 225-65-91***